MA'NAVIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA INSON SHAXSI VA UNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BILAN UYG'UNLIGI

Mavlyanova Gulnoza Olimovna
Qashqadaryo viloyat G'uzor tuman 1-son kasb hunar maktabi YOBIBDO'

Annotatsiya

Maqola ma'naviyat sohasidagi mavjud muammolarni inson shaxsi bilan bog'lagan holda tahlil qilingan bo'lib, bunda bugungi kun ta'lim va tarbiyaga bevosita ijobiy ta'sir qiluvchi zamonaviy texnologiyalar va ularning shaxs hayotidagi o'rni batafsil tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy islohotlar, milliy g'oya, tarix, madaniyat, ilm-ma'rifat, insonparvarlik.

Аннотация

В статье анализируются существующие проблемы в области духовности в связи с личностью человека, в которой подробно анализируются современные технологии, оказывающие прямое положительное влияние на образование и воспитание сегодня и их роль в жизни человека.

Ключевые слова: Духовные реформы, национальная идея, история, культура, наука, гуманизм.

Annotation

The article analyzes the existing problems in the field of spirituality in connection with the personality of a person, which analyzes in detail modern technologies that have a direct positive impact on education and upbringing today and their role in human life.

Key words: Spiritual reforms, national idea, history, culture, science, humanism.

Bugungi davr rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilish, mamlakatimizda bozor islohotlarini chuqurlashtirish, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoyalash, ijtimoiy xizmatlarning keng tizimini yaratish, mehnat bozorini rivojlantirish va aholi turmush darajasini ko'tarish imkonini beruvchi huquqiy asoslarini mukammallashtirish zarurligi bilan izohlanadi. O'tgan qariyb 30 yillik istiqlol davrida inson, uning hayoti, orzusi, dardu tashvishlarini kun tartibiga qo'yishni va bu boradagi ishlar ko'lami samaradorligini oshirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Ammo hal etilishi zarur bo'lgan muammolar jamiyatni asosiy bo'g'inini tashkil etuvchi oilalarning kundalik tashvishlari bilan ham bog'liq ekanligini zamonning o'zi namoyon etmoqda.

O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ma'naviy sohadagi islohotlar tarix, madaniyat, ilm-ma'rifat va falsafiy manbalaridan oziqlanadi hamda bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoga mos ravishda o'sib, takomillashib boradi. Xalqimizning buyuk davlat va jamoat arboblari, atoqli ijodkor va ziyolilar, hamda olimlarning qarashlari, g'oyalari ma'naviy islohotlar jarayonining asosini tashkil etadi. Ma'naviy islohotlarni esa milliy g'oyadan ayri tasavvur etish mumkin emas. O'z navbatida milliy g'oya xalqning dunyoqarashi, tarixiy o'zligi va milliy tarbiyasining ma'naviy manbai sifatida yosh avlod ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlari sifatida singdirilib boriladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy istiqlol g'oyasining ishlab chiqilishi O'zbekistonda mustaqillikni asrash, mamlakat xavfsizligini saqlash, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda xalqni birlashtirishga xizmat qildi. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va Xalq farovonligi kabi g'oyalar mamlakatimizni murakkab o'tish davrida ichki va tashqi siyosatining ijtimoiy barqarorlik muhitini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bugun esa xalqimiz, Vatanimiz intilayotgan milliy taraqqiyotning yangi bosqichida insonparvarlik tamoyilining rivojlanish tendensiyalari, istiqboldagi taraqqiyot yo'llari va bosqichlari chuqur tahlil etilmoqda. Insonparvarlik g'oyalari uzoq tarixga ega bo'lib, baxt-saodat

va adolatga erishish orzulari tarzida qadimdan xalq og‘zaki ijodida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta’limotlarda o‘z aksini topib kelmoqda.

Insonparvarlik – insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to‘g‘risida, insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g‘amxo‘rlik qilishni ifodalovchi tushincha. Unga ko‘ra dunyoda, eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g‘amxo‘rlik Insonparvarlikning asosiy masalasidir.

Sharq falsafasi va ijtimoiy tafakkurida Insonparvarlik g‘oyalari azaldan keng tarqalgan bo‘lib, uning ko‘p ming yillik tarixi bilan chambarchas bog‘liq. O‘rta Osiyolik mutafakkirlardan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy asarlarida Insonparvarlik, inson erkinligi uning qadr-qimmati g‘oyalari olg‘a surildi. Forobiy insonlarni inoq va do‘st yashashi mamlakatda xalqlar uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tinchlikni qat’iy quvvatlab, butun faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Navoiy inson taqdiri, xalq manfaati, mamlakat haqida g‘amxo‘rlikni asosiy masala qilib qo‘ygan. Dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg‘a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Jahon dinlari, jumladan Islom dinida ham Insonparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Unda faqir, kambag‘al, musofir, muhtoj kishilarga yordam berishga, sahovatli va insofli bo‘lishga da’vat qilinadi.

Insonparvarlik yaxlit dunyoqarash tizimi sifatida birinchi bor Yevropada Uyg‘onish davrida shakllangan. Insonparvarlik g‘oyalari Yevropada o‘rta asrlarda insonning kamsitilishiga, uni xudo va din nomidan haqoratlab inkvizatsiya gulxaniga tashlagan shafqatsiz dindorlarga va ularni qo‘llab quvvatlagan jamiyat vakillariga qarshi chiqdi. Inson huquqlari uchun murosasiz kurash sifatida namoyon bo‘ldi. Insonparvarlik keng ijtimoiy fikrni qamrab olib, adabiyot, falsafa, san’at va boshqa sohalarda 14-17 asrlarda Italiyada, keyinchalik esa Yevropaning boshqa mamlakatlarida keng tarqalgan.

Keyingi asrlar davomida Insonparvarlik g‘oyalari gumanizm nomi bilan rivojlandi. Bu atama birinchi marta 19 asr boshlarida fanda ishlatila boshladi va 20 asrning o‘rtalarigacha jamiyatdagi adolatsizlikni, tengsizlikni tanqid qilishga qaratildi. 2-jahon urushidan keyin jahon taraqqiyotida tub o‘zgarishlar yuz berib, haqiqiy Insonparvarlik tomon jiddiy qadamlar qo‘yildi. Buni BMT, YuNESKO kabi xalqaro, mintaqaviy va davlatlararo tashkilotlar deklaratsiya va hujjatlarida ko‘rish mumkin. Insonparvarlik har bir huquqiy, demokratik davlatning hayot qoidalaridan biriga aylanmoqda.

O‘zbekiston o‘z siyosatini Insonparvarlik shartlari, talablari, qoidalariga, Sharq va G‘arb davlatlarining eng ilg‘or tajribalariga tayanib olib bormoqda. Xo‘sh bu haqda ma’naviyat qanday fikrda? Agar ma’naviy sohalar islohida insonparvarlik haqida, muhim nazariy fikrlar bildirilmas ekan, bu boradagi faoliyatimizni har tomonlama puxta o‘ylangan tizim asosida doimo ish olib bormas ekanmiz, biz o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadga erisha olmaymiz. Bu borada mamlakatimizda inson qadr-qimmatini takomil bosqichlarini rivojlantiruvchi qonunlar va qarorlar qabul qilinmoqda. Aynan ushbu qonun va qarorlar milliy mentalitetimiz ruhiyatidan kelib chiqib insonparvarlashtirishni zamonaviy texnologiyalarga uyg‘unlashtirmoqda.

Bu borada Muhtaram Prezidentimizning 2019 yil 3 maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4307-son qarori qabul qilindi. O‘zbekistonda ayni shu asosda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamiyat ma’naviy hayotining barcha sohalarini yanada liberallashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilish haqidagi Konstitutsiyaviy tamoyil asosida xalq bilan muloqot davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu esa jamiyat hayotining barcha bo‘g‘inlarida xalq bilan muloqotning turli shakl va vositalari, jumladan, Xalq qabulxonalari, Virtual

qabulxonalar, Bosh vazir qabulxonasi, mas'ul va mutasaddi rahbarlarning xalq deputatlari mahalliy kengashlaridagi hisobotlari, sayyor qabullar, ijtimoiy muammolarni, odamlarning yashash sharoitlarini bevosita joylarga chiqib o'rganish kabi usullar keng qo'llanayotgani milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash orqali milliy g'oya tamoyillarini takomillashtirishga, pirovard natijada aholi manfaatlari va farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Inson qaerda yashamasin, albatta uni yagona Vatan tuyg'usi o'z ona zamini bilan bog'lab turadi. Bu borada hech shubha yo'qki, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 130 millat va elat vakillari gumanizm g'oyalari asosida kun kechirmoqdalar. Xuddi shundayin, xorijda ishlab kun kechirayotgan vatandoshlarimiz ham Vatan oldidagi ma'suliyat tuyg'usi bilan doimo yurtining bugungi va ertangi taraqqiyoti haqida o'ylaydi, uning oldidagi farzandlik burchini ado etishga intiladi. Ma'naviy barkamol inson Vatan ravnaqi yo'lida o'z bilim va tajribasi, aql-zakovati, iste'dodini to'la-to'kis namoyon etish uchun qo'lidan kelgan barcha imkoniyatlarni safarbar etadi. Bu haqda qadimgi Yunon falsafasida, inson dialektikasiga to'xtalib, Suqrotning "O'zligingni bil" degan hikmatli so'zi bugungi davrda yangicha ahamiyat kasb etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda yetuk va mukammal inson timsolini yaratishda rassomlar va haykaltaroshlar, shoir va yozuvchilar, faylasuf va olimlar qanday texnolgiyadan foydalanmoqdalar? Umuman mukammal inson timsolini yaratishda nafaqat ijodkor ziyolilar balki ayrim soha vakillari ham qizg'in ish olib bormoqda. Bugun hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan "nanatexnologiya", "ayditexnoligiya"lar fikrimizni yanada jonlantirigan bo'ladi. Chunki inson insonparvarlashtirishda nafaqat insonning o'zi balki zamonaviy ilm-fanning eng oxirgi yoki kelajak texnologiyalari ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etishi nazarda tutilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashim joizki ma'naviyat bilan inson chambarchas bog'liqdir. Kezi kelganda inson tafakkurini o'zgartirishga qodir bo'lib borayotgan globallashuvning yot unsurlariga taslim bo'lmasdan, ularga faol qarshilik ko'rsata oladigan ma'naviyat texnologiyasi, yaxshilik texnologiyasi, milliy mentalitet texnologiyasi ustida bosh qotirishimizga to'g'ri kelmoqda. Agar biz bugungi o'zgarishlar va yangilanishlarni yuqorida ta'kidlab o'tilgan texnologiyalar asosida inson hayoti bilan bosqichma-bosqich shakllantirib borsak ma'naviy sohadagi islohatlarni isloh qilib borgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak".T.: O'zbekiston. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Xalq so'zi gazetasi, 21aprel, 2017 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil, 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori, Xalq so'zi gazetasi, 29 iyul, 2017 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, Xalq so'zi gazetasi, 9 oktabr, 2019 yil